**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI**
**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlar bo‘yicha prorektor
_________ Dj.B. Sultanov
“___”________ 2023 yil

Ro‘yxatga olindi: № 58
“ 4 ” 09 2023 yil

# FOND BOZORLARIDA BIZNES

## FANNING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 600 000- | Axborot-kommunikasiya texnologiyalari |
| **Ta’lim sohasi:** | 610 000- | Axborot-kommunikasiya texnologiyalari |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60310500- | Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) |

**Toshkent – 2023**

| Fan/modul kodi TEE | | O'quv yili 2023-2024 | Semestr 7 | ECTS - Kreditlar 6 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili o'zbek/рус | | Haftadagi dars soatlari 5 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (coat) | Jami yuklama (coat) | |
| | Fond bozorlarida biznes | 74 | 106 | 180 | |

| | |
|---|---|
| 2. | **I. Fanning mazmuni**<br>Fanning maqsadi va vazifalari asosan, ushbu kurs orqali talabalarga mamlakatimiz moliya bozorining qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan sohasi. Fond bozorining asosiy vazifasi: investitsiyalarni, ya'ni, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va texnika ravnaqiga zarur investitsiya mablag'larini to'plash hamda taqsimlash; qimmatli qog'ozlar paketlaridan foydalangan holda mulk egaligini o'zgartirish; qimmatli qog'ozlar oldi sotdi yo'li bilan bozorni qayta taqsimlash; qimmatli qog'ozlar chiqarish yordamida davlat qarzini moliyalashtirish va boshqa fond bozori qatnashchilari kapital qo'yilmalari xayotga tadbiq etishda Fond bozorlarida biznes fani asosiy rol o'ynaydi. Talabalarga Fond bozorlarida biznesni o'rganish jarayonida paydo bo'ladigan ilmiy va amaliy muammolarni yechish uchun ilmiy yo'nalishdagi nazariy asoslarini o'rgatishdan iborat.<br><br>**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**<br>**1-mavzu. Birjalarning iqtisodiy mohiyati.**<br>Birja tushunchasi, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, instrumentlari (pul va qimmatli qog'oz), tamoyillari, turlari, ishtirokchilari va ularning munosabatlari. Birja ishini tashkillashtirishning metodologik asoslari. Birja ishining zamonaviy tendensiyalari va muammolari. Birja ishi ning mazmuni, iqtisodiyotdagi ahamiyati va o'rni.<br>**2-mavzu. O'zbekiston respublikasida birjalar faoliyati.**<br>Birja faoliyati birja savdolarini tashkil etish hamda talab va taklifning haqiqiy nisbatini aniqlash asosida birja tovarlarining narxlarini chiqarish orqali birja tovarlarining bozorini yaratishga qaratilgan harakatlar yig'indisidan iborat. Birja faoliyatini litsenziyalash. Birjalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli litsenziya olganidan keyin birja faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'lishi |
| | ega bo'lishi<br>**3-mavzu. Tovar birjalarini boshqaruv organlari.**<br>Birjani boshqarish uning a'zolari tomonidan ham, yollanma xodimlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Birjaning oliy rahbarlik organi direktorlar (boshqaruvchilar) Kengashi hisoblanadi. Kengash birja a'zolari tomonidan saylanadi. Uning tarkibiga birja a'zolari ham, bir nechta direktolar ham kiradi. Birja faoliyati me'yorlari, siyosati va qoidalari direktorlar Kegashi tomonidan belgilanadi va direktorlar Kegashi tomonidan tayinlanadigan yoki birja a'zolari tomonidan saylanadigan, birja a'zolaridan tarkib topgan qo'mita tomonidan hayotga tatbiq etiladi<br>**4-mavzu. Birja statistikasi ko'rsatkichlari.**<br>Birja faoliyati obyektlari va subyektlarining axborot-tahliliy ta'minoti statistikaning muhim vazifasini hamda birja savdosini tartibga solish va sug'urtalashning zarur shartlarini ifodalaydi. Davlat statistikasi va birjalarni litsenziyalash va nazorat qilishi lozim bo'lgan organlar birja bozorining miqyosi va ahvoli, uning infratuzilmasi, birja qatnashchilarining daromad va xarajatlari haqidagi ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi.<br>**5-mavzu. Birjalarning tashkil qilinishi va asosiy faoliyat mexanizmi**<br>Mamlakatimizning keyingi yillarda eksport sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan rejalarni amalga oshirish.<br>**6-mavzu. Birja strategiyalari, bitimlari va ularning turlari.**<br>Moliyaviy bitim – odatda ikki tarafning moliyaviy instrument bo'yicha mulkiy xuquqni o'tishi yoki moliyaviy hizmat ko'rsatish to'g'risidagi ihtiyoriy kelishuvi bo'lib, o'zida taraflarning kelishilgan predmet (matlab) bo'yicha xuquqlari, majburiyatlari, javobgarliklari, o'zaro hisob-kitob shartlari, bajarish muddatlari va boshqa qo'shimcha shartlarni ifodalydigan yuridik xujjat.<br>**7- mavzu. Fyuchers savdosi asoslari.**<br>Fyuchers savdosi, fyuchers (muddatli) shartnomalari vositasida birja tovari bilan birjada savdo qilish shaklidir.Fyuchers shartnomasi bu – bitim tuzishda tomonlar belgilab qo'ygan narxda shartnomada ko'rsatilgan muddatda tovarni yetkazib berishga standart birja shartnomasi.<br>**8- mavzu. Fond birjasi.**<br>Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay |

investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. 2008-yilda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 6,4 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etildi. Bu 2007-yil bilan taqqoslaganda, 28,3 foizga ko'p bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan investitsiyalar kiritilishi

**9- mavzu. Brokerlar va brokerlik idoralari**.

Birja savdosining o'ziga xosligi shundaki, u sotuvchi yoki xaridorlarning o'zi tomonidan emas, balki ularning vakillari – birja vositachilari tomonidan amalga oshirilshi.

**10- mavzu. Birja bozorida kliring va hisob-kitoblar**

Hisob-kitoblar bu – birja kliringi davomida aniqlangan, yakuniy natijasi odatda birja bitimi obyektini sotuvchidan xaridorga o'tkazish bo'lgan majburiyatlarni bajarish, Shuningdek, xaridorning sotuvchi bilan shartnoma shartlari bo'yicha pul hisob-kitobi jarayonidir. Kliring va hisob-kitoblar zarurati bozor savdosining zamonaviy tashkil

**11- mavzu. Birja savdosida xavf-xatarlar va ularni baholash mezonlari**

Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalaShuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

**12- mavzu. Valyuta birjalari.**

Xorijiy valyuta bu yangi g'oya emas. Har xil pullarni ayirboshlash dastlabki tanga pullar paydo bo'lgan paytdan boshlab pulning asosiy funksiyalaridan biri sanaladi. Xorijiy valyuta bilan bitimlarning boshlanishi sifatida 1550-yillarda Lombardiyada pul ayirboshlashni hisoblash mumkin. Biroq xorijiy valyutani sotib olish Oltin standarti vujudga kelgan 1880-yilgacha shaklan umuman boshqacha, bugungiga o'xshamagan ko'rinishi

**13- mavzu. Xalqaro birja markazlari**

Qisqacha aytiladigan "Uoll-strit" nomi ostida AQSHning qimmatli qog'ozlar xarid qilinadigan va sotiladigan barcha birjalari: Nyu-york fond birjasi (New York Stock Exchange - NYSE), Amerika fond birjasi (American Stock Exchange - AMEX) va mintaqaviy fond birjalari nazarda tutiladi. AQSH birja tizimining asosi Nyu-york fond birjasi

**14-mavzu. Birja faoliyatini avtomatlashtirish**

Birja – bozor mexanizmining tarkibiy qismi; u talab va taklif real nisbatini aniqlaydi, muvozanatli narxlarni shakllantiradi va ularga ulgurdi bozorni yo'naltiradi, tovar massasini tovar muomalasi sohasiga jalb etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, birja – xedjlash orqali narxni barqarorlashtirish vositasi, narxlar o'rtasidagi farqda tijorat chayqovlari vositasi va Shu asnoda investitsiyalash uchun jalb etuvchi soha

**15-mavzu. Qimmatli qog'ozlar bozori tushunchalari va ularning vazifalari.**

Qimmatli qog'ozlar reytinglari ahamiyati yana shundan iboratki, ular tajribasiz sarmoyadorga dastlabki bosqichda pullami qimmatli qog'ozlarga qo'yilma qilishni m o'ljallab olish uchun imkon beradi. Reytinglar sarmoyadorlarga emitentning moliyaviy hisobotini jiddiy tahliliy tadqiqotlar o 'tkazmay turib, tanlovni amalga oshirishiga yordam beradi. Agar kompaniya reytingi yomon bo'lmasa, sarmoyador, odatda, o 'z qo'yilmalarini yetarlicha ishonchli deb hisoblaydi, chunki u mazkur reytingnishi

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

**1-mavzu.** Birjalarning iqtisodiy mohiyati.
**2-mavzu.** O'zbekiston respublikasida birjalar faoliyati .
**3-mavzu.** Tovar birjalarini boshqaruv organlari
**4-mavzu.** Birja statistikasi ko'rsatkichlari
**5-mavzu.** Birjalarning tashkil qilinishi va asosiy faoliyat mexanizmi
**6-mavzu.** Birja strategiyalari, bitimlari va ularning turlari
**7-mavzu.** Fyuchers savdosi asoslari
**8-mavzu.** Fond birjasi
**9- mavzu.** Brokerlar va brokerlik idoralari
**10- mavzu.** Birja bozorida kliring va hisob-kitoblar.
**11-mavzu.** Birja savdosida xavf-xatarlar va ularni baholash mezonlari
**12 -mavzu.** Valyuta birjalari
**13- mavzu** Xalqaro birja markazlari
**14-mavzu.** Birja faoliyatini avtomatlashtirish
15-mavzu.Qimmatli qog'ozlar bozori tushunchalari va ularning vazifalari

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

"Fond bozorlarida biznes" fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy

| | |
|---|---|
| | vazifasi sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi, ma'ruzaga oid materiallarni mustaqil fikrlari konspektlashtiriladi. Bundan tashqari, ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.<br>Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham, mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1. Aksiyalarni investitsiya qilishning asosiy jihatlari<br>2. Brokerlik joyini ijaraga berish.<br>3. Fond birjasi va uning O`zbekistonda vujudga kelishi<br>4.Qimmatli qog'ozlarning texnik tahlili<br>5.Qimmatli qog'ozlarning fundamental tahlili<br>6.Qimmatli qog'ozlarning indekslari<br>7.Qimmatli qog'ozlarning reytingi<br>8.O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari<br>9. Qimmatli qog'ozlar indekslari va ularning ahamiyati<br>10. Markaziy banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'rni<br>11. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan operatsiyalari<br>12. Investitsiya maslahatchilari<br>13. Investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchisi<br>14. Xususiylashtirish investitsiya fondlari<br>15. Investitsiya muassasalarining turlari<br>16. O'tkazma vekselning majburiy rekvizitlari |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar**<br>"Fond bozorlarida biznes" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:<br>- O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat shakllanish xususiyatlari, aloqa va axborotlashtirish sohasida axborot risklarini boshqarish tizimini nazariy asoslari *haqida tasavvurga ega bo'lishi;*<br>- iqtisodiy risklar xususiyatlari va ularning klassifikatsiyasi, risklarni boshqarishni tashkillashtirish, ularni baholash usullarini *bilishi va* |

| | |
|---|---|
| | - riskni sifat va miqdor taxlili va uni o'tkazish uslubi, axborot makoni qonuniyatlarini taxlil qilish, axborot risklarini sug'urtalash axborot xavfsizligini ta'minlashning muqobil usullari bo'yicha ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>* ma'ruzalar;<br>* interfaol keys-stadilar;<br>* semnarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>* guruhlarda ishlash;<br>* individual loyihalar;<br>* taqdimotlar qilish. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2008 y.(o'zgartirilgan holatda)<br>2. Аршавский А. Ю., Берзон Н. И., Галанова А. В., Рынок ценных бумаг. Учебник . Юрайт-Издат - 2012, 533 стр.<br>3. Дегтярева О.И. Биржевое дело./М.: "Магистр", 2007. – 623с.<br>4. Килячков А.А., Чалдаева Л.А. Рынок ценных бумаг и биржевое дело: Учеб.пособие. 2-е изд., с изм. – М.: Економистъ, 2005. – 687 с.<br>5. Sh.Shoxa'zamiy va boshqalar. Qimmatli qog'ozlar. O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisod-moliya", 2010.-140 b.<br>6. Шоха'замий Ш.Ш. «Финансовый рынок и ценные бумаги» КНИГА И. Усhебник.-Т.: Иqтисод-молия, 2005.-728 с.<br>7. Исматуллаев А.Х., Фаттахов А.А., Самадов А.Н. Биржевое дело. Усhебник. – Т.: ТГЭУ, 2017. – 300 стр.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.:O'zbekiston, 2018.-76 b.<br>2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni<br>**Axborot manbaalari**<br>www.economics.ru<br>www.ved.ru |

| | |
|---|---|
| | www.uza.uz<br>www.Lex.uz<br>www.ziyonet.uz |
| 7. | O'quv dasturi Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Kengashining 2023-yil 31-avgustdagi 9(731)/1(732) -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sullar:**<br>N. A.Xasanova - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "AKT sohasida iqtisodiyot" kafedrasi dots. v.b. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Xakimov Z. – TDIU " Marketing" kafedrasi dotsenti.<br>Saitkamolov M. - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti AKT sohasida iqtisodiyot va menejment fakulteti dekani. |